

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadorining
8-sonli qarori

2025-yil “17” dekabr

Toshkent shahri

“O‘zenergosotish” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 176 592 donani tashkil etadi.

“O‘zenergosotish” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lib, ushbu vazirlik Jamiyatning Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masalalar yuzasidan qabul qilindi:

1. “O‘zenergosotish” AJning Ustaviga, “Ijroiya organi to‘g‘risida”gi va “Ijroiya organiga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizomlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish masalasini ko‘rib chiqish.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

“O‘zenergosotish” AJning amaldagi Ustaviga hamda “Ijroiya organi to‘g‘risida”gi Nizomiga ko‘ra Jamiyat ijro organi (Boshqaruv) tarkibi 3 kishidan iborat (Boshqaruv raisi va uning ikki o‘rinbosari) bo‘lib, bugungi kunda Hukumatning turli qarorlari bilan Jamiyatning zimmasiga yuklanayotgan vazifa va topshiriqlar hajmi ortib bormoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi PQ-39-sonli qarori bilan elektr energiyasini ishlab chiqarish va saqlash bo‘yicha 52 ta DXSh asosidagi loyiha bo‘yicha bitimlar va mazkur bitimlar bo‘yicha tegishli majburiyatlar (elektr energiyasini kafolatlangan tarzda xarid qilish, DXSh IESlarga tabiiy gazni yetkazib berish, elektr energiyasini uch oy mobaynida sotib olish majburiyati bajarilishining ta‘minoti sifatida bank kafolatlarini taqdim etish, majburiyatlarni sug‘urtalash va h.k.) “O‘zenergosotish” AJga bosqichma-bosqich qayta rasmiylashtirilmoqda.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-avgustdagi 508-sonli qaroriga asosan joriy yilning 1-oktabridan magistral elektr tarmoqlariga va elektr stansiyalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulangan 300 taga yaqin yirik iste‘molchilarga elektr energiyasini sotish funksiyasi “O‘zenergosotish” AJga o‘tkazildi.

Ushbu qo‘shimcha funksiyalarning Jamiyatga o‘tkazilishi Jamiyat Ijroiya organi zimmasiga yuklamalar ortishi bilan bir qatorda, qarorlar qabul qilishda yuqori darajada mas‘uliyatni va kolegiallikni talab etmoqda.

O‘z navbatida, Jamiyat Boshqaruvning faqatgina 3 kishidan iborat bo‘lganligi hamda boshqaruv a‘zolarining Hukumat topshiriqlariga binoan tez-tez xizmat safarlarida bo‘lib turishi sababli kvorum yetishmasligi zarur hollarda tezkorlik bilan Boshqaruv qarorlarini qabul qilinishini qiyinlashtirmoqda.

Shu sababdan “O‘zenergosotish” AJ kundalik faoliyatidagi boshqaruv qarorlarining operativ ravishda qabul qilinishini ta‘minlash va kollegiallik darajasini oshirish maqsadida Jamiyat Boshqaruv a‘zolarining sonini 3 tadan 5 tagacha oshirilishi va bunda Jamiyat Boshqaruvi (Ijroiya organi) 5 a‘zodan, shu jumladan, rais va uning ikki o‘rinbosari va Jamiyatning Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi va Yuridik bo‘limi boshliqlaridan iborat bo‘lishi taklif etilgan.

Ushbu taklifdan kelib chiqib, “O‘zenergosotish” AJ Ustavining, “Ijroiya organi to‘g‘risida”gi va “Ijroiya organiga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizomlarining yangi tahrirdagi loyihalari ishlab chiqilgan.

Bu borada, “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining 2025-yil 12-noyabrdagi majlisida “O‘zenergosotish” AJ Ijroiya organi tomonidan kiritilgan Jamiyat Boshqaruv a‘zolarining sonini 3 tadan 5 tagacha oshirish to‘g‘risidagi taklif asosida ishlab chiqilgan “O‘zenergosotish” AJ Ustavining, “Ijroiya organi to‘g‘risida”gi va “Ijroiya organiga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizomlarining yangi tahrirdagi loyihalarini Jamiyatning Yagona aksiyadoriga tasdiqlash uchun kiritish yuzasidan qaror qabul qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq kun tartibidagi masala yuzasidan “O‘zenergosotish” AJning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “O‘zenergosotish” AJning yangi tahrirdagi Ustavi, “Ijroiya organi to‘g‘risida”gi va “Ijroiya organiga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizomlari 1, 2 va 3-illovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O‘zenergosotish” AJ Boshqaruvi raisiga (Obidjonov) Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tegishli davlat idoralarida ro‘yxatdan o‘tkazish ishlarini amalga oshirish yuklatilsin.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vaziri
o‘rinbosari

 **X.Mustafayev**